

BUYUK KOMPOZITOR GEORG FREDRIX GENDELNING “TAMERLANO” OPERASINING YARATILISH TARIXI

Tursunaliyeva Diyoraxon Akbarxon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Musiqa talimi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: kompozitor Georg Fredrix Gendel “Tamerlano” operasi, musiqa janrida buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temurni kuchli, aqilli va butun dunyoni lahzaga solga paytlardagi holati musiqa janrida namoyon bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: kompozitor, janr, musiqali drama, opera, teatr, asar,

Abstract: In the opera “Tamerlane” by composer George Fridric Handel, the musical genre depicts the great commander, the great Amir Temur, who was strong, wise and had conquered the whole world.

Keywords: composer, genre, musical drama, opera, theater, work.

Barokko davrining buyuk kompozitorlaridan biri Georg Fredrix Gendel o‘zining ijodiy faoliyati davomida opera, oratoriya, kantata va konsertlari bilan mashhurdir. Kompozitor 1685-yili Galle shahrida doktor oilasida dunyoga keladi. Gendel nemis va ingliz kompozitoridir. Gendel yoshligidan musiqaga qiziqar edi. Lekin otasi tomonidan musiqaga juda katta qarshiliklar bo‘ladi. Gendel 18 yoshida bu qarshiliklar tufayli 1717-yili Angliyaga ko‘chib boradi va Londonning “Qirol” musiqa akademiyasida badiiy rahabar bo‘lib ish yuritadi. Gendel “Qirollik” akademiyasi rahbarlik faoliyatida 32 ta oratoriya, kantatalar, orkestr va organ uchun konsertlar, 37 ta sonatalar va 40 ta tarixiy opera yaratgan.²³

Buyuk nemis kompozitori Georg Fredrix Gendelning sermaxsul faoliyatining qariyb 34-yili opera asarlari ustida ish olib borishga qaratilgan. Gendelning operalari orasida alohida o‘rin ega qilgan, “Tamerlano” operasi haqida so‘z boradi.

Opera 1724-yil Londonda yaratilgan. “Tamerlano” Gendel yaratgan oltinchi opera bo‘lib, “Qirol” konservatoriyasining oltinchi mavsumini ochib beradi. Bu opera yevropa va turkiy xalqlar mamlakatlari uchun bitmas tuganmas boylik hisoblanadi. Chunki

²³ Djamolova D.A. Fortepiano (Darslik). Toshkent: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi. 2025

operada buyuk sarkarda Amir Temur gavdalangan. Operaning ilk ijrosiga taniqli opera san'ati yulduzlari jalb etilgan.

Opera Agostino Piovene librettosiga asoslangan bo'lib, Nikolo Franchesko Xaym tomonidan qayta ishlangan. N.Xaym librettoga yangicha urg'u va dramaturgik siljishlarni kiritgan. Ushbu opera Gendel ijodining yuksak namunalaridan biridir.


Operadan o'rin olgan "ishq-muhabbat" mavzusi dramaturgik ahamiyatni o'zida ifoda etadi. Aynan muhabbat mavzusi bosh qahramonlar obrazini transformatsiya etilishida muhim vazifani o'taydi. Operaning bosh qahramonlari buyuk sarkarda Amir Temur, undan qolishmaydigan va ba'zan undan ustun turgan Boyazid shaxsi taqqoslanadi.



Либретто муқоваси.
Лондон, 1724¹³¹.



«Tamerlano» операсининг
партитура муқоваси¹³³



Георг Фридрих Гендель
«Tamerlano» операсининг

Opera janrida - “Uvertura, III akt, 7 ta parda, 30 ta sahna va 67 ta (36 ta rechitativ, 27 ta ariya, 2 ta duet, trio va yakuniy xor) nomerlaridan tashkil topgan”.²⁴

Asarning dramaturgik bog‘lanishi Amir Temurning jangda mag‘lub bo‘lgan Boyazidga ozodlik berishga tayyor bo‘lgan, ilk sahnasidan boshlanadi va ikki qahramonning o‘rtasidagi ziddiyati tobora kuchayib, butun operaning eng yorqin dramatik nuqtasi, asarning fojiaviy avji Boyazidning vafoti bilan bog‘liq ko‘rinishi bilan taqdim etiladi.

Libretto matnida ikki shaxsni bir-biriga taqqoslash, ularni birlashtirgan ishq-muhabbat rishtasi, o‘z navbatida personajlarni qarama-qarshi toifalarga ajratadi. Shu bilan birga ishq-muhabbat rishtasi asar dramaturgiyasini rivojlantirishga turtki beradi. Boyazid, qizi Asteriyani otalik mehri bilan sevadi, Androniko va Asteriya bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan sevishtanlar, Turkiya knyaginasini Irena Amir Temurga ko‘ngil qo‘ygan, Amir Temur esa Asteriyaga uylanish niyyatida. Opera librettosi shu tarzda boshlanadi.

Operaning rivoji musiqa dramaturgiyasining tuzilish tartibini taqsimlab beradi.

“Tamerlano” operasida opera-seria (opera-seria bu XVII asr oxirida paydo bo‘lgan, qahramonona yoki afsonaviy-tarixiy syujetlar asosida yaratilgan, asosiy e‘tiborni yakkaxon vokal ijrochiligiga qaratgan italyan operasining bir janri)²⁵ an‘anasining shartlari deyarli saqlanib qolingan. Operaning rivojlanishida uchdan bir qismi ta’sirli sahnalarni tashkil etadi.

Opera, Gendel tomonidan italyan tilida yozilgan bo‘lib, 1925-yili Xerman Rott tomonidan nemis tiliga tarjima qilinadi va umumiy musiqa tizimini saqlagan holda bir muncha qisqartirilgan shaklda “Tamerlan” nomi bilan qayta nashr qilinadi.

“Tamerlan” operasining ariyalari sonata qonun-qoidalarini o‘z ichiga olgan holda de capo (*D.C.* bu italyanча “boshidan” degan ma’noni anglatuvchi musiqiy atama) shaklida yozilgan. Kompozitor ariyalarda qahramonlarning ruhiy holatini murakkab va qattiyatli ichki dunyosini mohirona ifodalab beradi. Jumladan Amir Temurga 4 ta ariya, Boyazidga 6 ta ariya, Asteriyaga 6 ta ariya, Andronikoga 6 ta ariya, Irenaga 4 ta ariya taqsimlab berilgan.

²⁴ Tursunova R. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi T.: 2021

²⁵ Ливанова Т. История западноевропейской музыки до года 1789. М.Л. 1940.

“Tamerlan” operasiga Gendel jami 3 ta ansambl no‘merlaini qo‘shgan. Bu trio Asteriya, Boyazid, Temur; duet Asteriya va Androniko; duet Irena va Temur ijrosida kuy bilan hamjihatlikda hirgoyi qilinadi.

“Temur” operasidagi yagona xor spektaklning yakunida butun asarga xulosa yasaydi. Ushbu xorda operaning bosh qahramonlari ishtirok etib (Amir Temur, Boyazid, Asteriya, Androniko, Irena, Leon), xorda barcha qahramonlar o‘zlarining partiyalarini birlashtirish an‘anasini davom ettirishadi. Shuningdek, xor operaning tugallanishiga, asarning bosh xolatini tarannum etadi.

“Tamerlan” operasida Amir Temur shaxsi dastavval va operaning tugallanishigacha o‘zgarmay qoladi. Amir Temur tarix sahifalarida g‘olib bo‘lgan va g‘olibligicha qoladi.

Bunda operaning yakunlovchi xori tasdiqlaydi.

Georg Fredrix Gendel o‘z davrining yetuk ijodkori bo‘lgani bois, Amir Temur qiyofasini talqin qilishda musiqiy sahna asarlarini hamda janr qonuniyatlari bilan cheklamasdan, ba’zida bu qoidalarga rioya qilmasdan, o‘z davrining dolzarb va mafkuraviy masalalarini ko‘tardi. Bu borada Yevropa, ma’naviy-madaniy hayot uchun muhim bo‘lgan ilg‘or g‘oyalarni ilgari surdi. Zamonamizning yetuk xonandalari P.Domingo, M.Bachelli, A.Boxlin, S.Mingardo, L.Donato, J.Xollouyevlari tomonidan “Tamerlano” operasi, sahna spektakli hamda konsert ko‘rinishida ijoro etilgan bo‘lib, xozirgacha ham bu opera san’at shinavandalarini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Yillar davomida kompozitor Gendel sharafiga Karlsrue, Gettingen, London va Merilen kabi dunyolarda, muntazam ravishda festivallar o‘tkazib kelindi. Kompozitorning ijodiy faoliyati bisotidan o‘rin olgan “Amir Temur” operasi Germaniya, Italiya, Angliya, AQSH, Gollandiya va Rossiya kabi mamlakatlarda boshqa operalar qatori xozirda ham sahnalashtirilmoqda.

2017-yili “La Scala” opra teatrining ochilish namoyishida Gendelning “Temur” (Tamerlano) operasi bilan namoyish etiladi. Kompozitorning operadagi *opera-seria* andozasi tomoshabinlar e’tiboriga yangicha rejissyorlik talqini orqali havola etildi.

2015-yili o‘zbek shoiri va tarjimoni G‘ulom Mirzo tomonida, buyuk nemis kompozitori Georg Fredrix Gendel tomonidan yaratilgan “Tamerlano” operasi o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu operani xalqimiz e’tiboriga xavola etish maqsadida, “Yangi asr avlodi” nomli nashriyotda chop etildi.

2024-yili 3-oktabr Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi teatr sahnasida O‘zbekison Madaniyat va san’atni rivojlantirish rejissyori Stefano Poda tomonidan sahnalashtirilgan “Tamerlano” operasining ilk namoyishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu operda Kompozitor Gendelning musiqasi, Krill Rixterning zamonaviy talqinida jarangladi.

Yuqorida takidlab o‘tilganidek operada Amir Temur hayoti, Usmonli sultoni Boyazid, qizi Asteriya, Androniko va Irena obrazlari gavdalangan. Afsonaviy opera 2024-yili 300

yoshga to'ldi. Operaning musiqiy jo'rliги drijyor Alibek Kabdurahmonov boshchiligida O'zbekiston milliy simfonik orkestri tomonidan tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. "Tamerlano" operasida sahnalashtiruv asarida jami 160 dan ortiq insonlar safarbar qilingan. Opera italyan tilida ijro etilgan.²⁶

"Tamerlano" operasi O'zbekiston uchun badiiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu operada yurtimizning madaniy va ma'naviy hayotining yorqin voqeasiga aylanib, keng jamoatchilik va jahon musiqiy diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etitirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunova R. G'arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi T.: 2021
2. Temur tuzuklari. A.Sog'univ, X.Karamatovlar tarjiması. B.Axmedov taxriri ostida. So'zboshi B.Axmedov. T.: 1999
3. Ermatov B. G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi. Filologiya fanalri doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T.:2019
4. Erqo'ziyev.A Yevropada Amir Temur timsoli. (XV-XVII asrlar). T.: 2007
5. Федосеев И. Оперное творчество Г.Ф.Генделя. СПб.: 1996
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: 2000
7. Djamolova D.A. Fortepiano (Darslik). Toshkent: O'zDK. 2025

²⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: 2000